O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI
SAMARAQAND DAVLAT
UNIVERSITETI

Ro‘yxatga olindi:
№ БД60230100-1.13
2021- yil “__”_____

“TASDIQLAYMAN”
SamDU rektori:
_____ R.I.Xalmuradov
2021- yil “__”_____

O‘ZBEK FOLKLORI

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	100000 – Gumanitar soha
Ta’lim sohasi:	230000- Gumanitar fanlar
Ta’lim yo‘nalishi:	60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili

Fan dasturi “Mumtoz adabiyot tarixi” kafedrasining 2021-yil ___-_____dagi ___-son yig‘ilishida muhokamadan o‘tgan va fakultet kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri: **f.f.d. I. Sulaymonov**

Fan dasturi Filologiya fakulteti kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (2021-yil __-_____dagi __-sonli bayonnoma).

Fakultet Ilmiy kengashi raisi **f.f.d. A.Pardayev**

Fakultet uslubiy Kengashi raisi **dots. Sh.Mahmadiyev**

“Kelishildi”

SamDU o‘quv ishlari

bo‘yicha prorektor: **prof. A.Soleyev**

Fan/modul kodi	O‘quv yili	Semestr	ECTS – Kreditlar
O’FM1005	2021-2022	1	5

Fan/modul turi	Ta’lim tili	Haftadagi dars soatlari
Majburiy	O‘zbek	4

1.	Fan nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)
	O‘zbek folklori	60	90	-

2. **I. Fanning mazmuni**

“O‘zbek folklori” fanining ta’limiy maqsadi: talabalarga xalq og‘zaki ijodi haqida bilim berish, ularda folklor asarlarini tahlil va talqin qilish ko‘nikmalarini shakllantirish.

“O‘zbek folklori”fanining tarbiyaviy maqsadi:talabalarni milliy an’analarga nisbatan hurmat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.

“O‘zbek folklori “ fanining rivojlantiruvchi maqsadi:badiiy asar g‘oyasini ifodalashda folklor asarlari va an’analarining ahamiyatini belgilash, adabiyotshunoslik va xalq og‘zaki ijodining chambarchas bog‘liq ekanligiini anglash hamda folklor asarlarini ilmiy jihatdan o‘rganish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Folklor asarlari o‘zining hayotiyligi, ijtimoiy tabiati, g‘oyaviy mohiyati hamda o‘ziga xos badiiy xususiyatlari bilan ajralib turishi. Xalqning mehnati, urf-odati, turmush sharoiti, orzu-istagi, kurash va g‘alabalari uning temasi va g‘oyaviy mazmunida aks etganligi.

Folklor asarlarining xalqchillik xususiyati ularning hayotiyligi va qaysi bir dunyoqarashni himoya qilishi bilan bog‘langanligi. Bu xususiyat, asosan, folklor asarlarida mavjud bo‘lgan bosh g‘oyaning mohiyatidan kelib chiqishi. Folklor asarlari o‘ziga xos badiiy qolip-andozaga ham egaligi. Ayniqsa, ertak va dostonlarda mavjud syujet va kompozitsiya hikoya qilish uslubi xarakterli bo‘lib, har ikki janrga xos syujet voqelari doimo o‘ziga xos boshlanma va tugallanmaga ega bo‘lishi xususida. Bunday xususiyat yozma adabiyotda uchramasligi.

Xalq og‘zaki ijodining o‘z ijodiy metodi mavjudligi. Uni shartli ravishda romantizm tipidagi ijodiy metod deyish mumkinligi, chunki folklor asarlarida fantastika, badiiy uydirmalar, hayotiy asos bo‘lishi, yo‘g‘rilgan xayoliy voqea va hodisalar hayotni tasvirlashning o‘ziga xos uslubi sifatida namoyon bo‘lganligi.

“Folklor” termini haqida tushuncha. Xalq og‘zaki badiiy ijodi tarixi va uning asosiy janrlari. O‘zbek xalq og‘zaki poetil ijodi va boshqa xalqlar folklorining mushtarakligi, farqli tomonlari va an’analarining badiiy ifodasi sifatida.

Xalq og‘zaki poetik ijodining asosiy xususiyati ijodiy jarayon-yaratuvchilik va ijrochilik jarayonining kollektivlik xarakteriga egaligi. Uning og‘zakilik, variantlilik, ommaviylik, traditsionlik, anonimlik kabi belgilarini kollektivlik tomonidan yaratilgan poetika elementlari, an'anaviy uslub vositalari asosida yuzaga kelishi. U muayyan eshituvchilar guruhiga

mo'ljallangan bo'lishi va kollektiv tomonidan e'tirof etilgandagina ijtimoiy va tarixiy ahamiyat kasb etishi.

Folklor namunalari og'zaki yaratilib, og'zaki ijro etilishi. Xalq og'zaki poetik ijodining kollektivlik xarakteri individual ijodchilar faoliyatini inkor etmasligi. Iste'dodli ijodkorlar folklor namunalarini saqlab qolishi va keng ommalashtirish bilan birga og'zaki an'analari doirasida uni yanada mukammallashtirgan holda, yangilarini yaratilishi.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu. Mustaqillik davrida "O'zbek folklori"ni o'rganishning yetakchi masalalari. Folklor – xalq og'zaki ijodining o'ziga xos xususiyatlari.

So'z san'atining dastlabki namunalari insoniyat nutqi paydo bo'lishi bilan yuzaga kela boshladi. Xalq og'zaki poetik ijodi – o'zbek folklori mehnatkash omma ijodi, xalq badiiy faoliyatining tarkibiy qismi, xalq san'atining boshqa turlaridan (musiqa, teatr, raqs, o'yin, tasviriy va amaliy san'at hamda boshqalardan) o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadigan og'zaki so'z san'atidir. Har bir xalqning asrlar orzusini aks ettirgan boy og'zaki so'z san'ati bo'lganidek, o'zbek xalqining ham og'zaki adabiyoti durdonalari mavjud. Mehnatkash omma tomonidan og'zaki tarzda yaratilib, xalqning iste'dodli vakillari ijrosida sayqal topib, avloddan avlodga o'tib kelayotgan badiiy asarlar o'zbek xalq poetik ijodini tashkil etadi.

2-mavzu. Xalq og'zaki ijodi so'z san'ati sifatida. Xalq og'zaki ijodi janrlari tasnifi va tavsifi:

So'z san'atining dastlabki namunalari insoniyat nutqi paydo bo'lishi bilan yuzaga kela boshladi. Uning tashkil topishida o'sha davr shart-sharoiti, odamlarning mehnat va turmush tajribalari, dunyoqarash va tushunchalari hal qiluvchi rol o'ynagan. Eng avval og'zaki nasriy turning dastlabki namunalari vujudga kelgan. Ular nihoyatda sodda bo'lib, turli xildagi undov-xitoblar va voqealar bayonidan iborat bo'lgan. Mehnat jarayoni hamda ongning rivojlanishi voqea va hodisalar talqinida oddiy bayondan obrazli tasvirlashga olib keldi. Sodda va takroriy jumlalar badiiy til vositalari bilan boyiy boshlagan. Oddiy so'z o'rnini ko'chma ma'noli so'z, sifatlash, mubolag'a va o'xshatishning ilk namunalari egallay borgan. Shunday qilib, dunyoni badiiy va estetik did bilan fahmlay olish, badiiy so'z tajribalarining taraqqiyoti folklorning dastlabki janrlarini yuzaga keltirdi. Eng avval kichik-kichik naql

va miflar, mehnatni engillashtiruvchi, ruhan tetik qiluvchi, xayol og'ushiga olib kiruvchi ertak va afsonalar yaratildi, mehnat jarayonini ifodalovchi qo'shiqlarning namunalari paydo bo'ldi.

3-mavzu. Qadimgi davr folklori. Mif, afsona va rivoyatlar

Qadimgi davr folklorlarining asl namunalari bizga qadar saqlanib qolmaganligi. Turli davrlarda ular turlicha o'zgarishlarga uchraganligi. O'rta Osiyo xalqlarining qadimgi folklorlarining ba'zi namunalari ayrim tarixiy, ijrochilarda, yodnomalarda qisman saqlanib qolganligi.

Turkiy xalqlar mifologiyasi. Mif (asotir) atamasi. Miflar jamiyat tafakkurining badiiy in'ikosi sifatida. "Avesto"ning mifologik asoslari. O'rxun-enasoy bitiklarida folklor mativlari. Turkiy kitobiy doston va nasriy asarlar ("O'g'uznoma", "Kitobi dadam Qo'rqut", "Qutadg'u bilig", "Hibatu-l-xaqoyiq", "Qissai Rabg'uziy")da folklor an'analari. Totemizm, fetishizm, antimizm tushunchalari. Miflarda xalq e'tiqodlarining ifodalanishi.

Afsona va rivoyatlar, ularning hayot haqiqati bilan munosabati. Afsona va rivoyatlarning o'xshash va farqli nomonlari. Qahramonlik afsonalari, "To'maris" va "Shiroq" afsonalari. Afsonalarda Vatan tuyg'usi. Xalq afsonalarida rasm-rusumlar, geografik nomalar, tarixiy voqealarning izohlanishi. Qirqqiz, Guldursun, Hazorasp, Dalvarzon tepa afsonalari.

4-mavzu. Kichik janrlar: maqol, matal va topishmoq, olqishlar va qarg'ishlar janrlar poetikasi.

Maqol xalq og'zaki ijodining ixcham shaklga, ammo chuqur mazmunga ega bo'lgan janrlaridan biri bo'lib, u xalqning ko'p asrlik hayotiy kuzatishlari, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy tajribalari asosida vujudga kelganligi. Maqollar o'zlarining ijtimoiy-g'oyaviy funktsiyalariga ko'ra, asosan keng xalq ommasining, ayrim hollarda esa ba'zi ijtimoiy tabaqa yoki guruhlarning dunyoqarashini ifodalaganligi. Maqol termini arabcha "qavlun"(aytmoq, gapirmoq) so'zidan olingan bo'lib, o'zbek tilida u xalq donoligining namunasi ekanligi.

Topishmoq xalqning hayotini, turmush madaniyatini, urf-odatlarini, predmetlarning badiiy-estetik tomonlarini o'zida aks ettiruvchi folklorning eng qadimiy, eng kichik va ixcham mustaqil janri ekanligi. Topishmoq janri o'zbeklarda topishmoq, topmacha, topar cho'pchak, top-top, jumboq, matal, masala kabi bir necha terminlar bilan yuritilganligi.

Topishmoqlar-xalq og'zari ijodning kichik janri sifatida. Topishmoqlarning ma'rifiy, estetik va tarbiyaviy ahamiyati. Topishmoqlarning janr xususiyatlari. An'anaviy topishmoqlarda xalq hayotining aks etishi. Topishmoqlarning badiiy xususiyatlari.

5-mavzu. Xalq dostonlari, dostonchilik maktablari, dostonlar tavsifi.

Doston o'zbek folklorining keng tarqalgan va yirik janrlaridan biridir. Uning yaratilishi xalqimizning ma'naviy-maishiy qiyofasi, ijtimoiy-siyosiy kurashlari, axloqiy-estetik qarashlari, adolat va haqqoniyat, ozodlik va tenglik, qahramonlik va vatanparvarlik haqidagi ideallari bilan chambarchas bog'liqdir. Asriy kurashlar va ideallar uning tematikasi, g'oyaviy mazmuni, obrazlar sistemasi, syujet va kompozitsiyasi mohiyatini belgilaydi.

Turkiy epos va unda doston janrining tutgan o'rni. Xalq dostonlarining janr tabiati. Dostonlar tasnifi. Doston ijrochilari. Dostonchilik maktablari. Dostonlarda variantlilik, turkumlik masalalari.

Qahramonlik dostonlari, ishqiy-romanik dostonlar, romanik dostonlar, kitobiy dostonlar.

Zamonaviy dostonchilik. Zamondosh doston ijrochilari. «Alpomish» dostoni va uning badiiyati, versiyalari, variantlari, asosiy obrazlar tizimi.

6-mavzu. Qahramonlik dostonlari. "Alpomish" dostonining variant va versiyalari.

"Alpomish"-qadimiy xalq qahramonlik eposi sifatida. Dostonning variantlari va versiyalar. "Alpomish" dostoni haqida munozaralar. Dostonning nashrlaridagi farqlari (1939,1958,1979,1992,1993,1998). Asarga islom dini ta'siri. Dostonning badiiy xususiyatlari. "Alpomish" dostoning o'zbek xalq og'zaki ijodida tutgan o'rni va ahamiyati. «Alpomish» – qadimiy xalq qahramonlik eposi sifatida. Dostonning variant va versiyalari haqida ma'lumot. «Alpomish» dostoni haqida munozaralar tahlili. «Alpomish» dostonining to'liq matni, nashri va uning ming yillik yubileyi yuzasidan ma'lumot. «Alpomish» dostonida yurt birligi ifodasi. Dostonda mifologik dunyoqarash ildizlarining o'rni va ahamiyati. Dostonning badiiy xususiyatlari. Dostonning o'zbek xalq og'zaki ijodida tutgan o'rni va ahamiyati.

7-mavzu. Go'ro'g'li turkumidagi dostonlar. Go'ro'g'li xalq orzu qilgan milliy qahramon sifatida.

"Go'ro'g'lining tug'ilishi va bolaligi", "Yunus pari", "Misqol pari", "Ravshan", "Avazxon", dostonlarining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari.

«Go'ro'g'li» turkumi dostonlari. Go'ro'g'li turkumining shakllanish tarixi. Mazkur turkumda o'zbek xalqining milliy mentaliteti ifodasi. «Go'ro'g'lining tug'ilishi», «Ravshan» dostonlari tahlili. Go'ro'g'li xalq orzu qilgan milliy qahramon sifatida.

8-mavzu. Romanik va kitobiy dostonlarning g'oyaviy badiiy xususiyatlari

Romanik dostonlarning tuzilishi nihoyatda murakkab. Qahramonlik dostonlarida romanik elementlar bo'lganidek, romanik dostonlardan qahramonlik elementlari, jangnomalar xususiyatlari ham mustahkam o'rin olgan. Hatto, bir dostonda bir necha tema baravar ishlangan bo'lishi mumkin.

Kitobiy dostonlarning bir guruhi klassik adabiyot namunalarining baxshilar tomonidan qayta ishlanishi natijasida yuzaga kelgan. Masalan, «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Bahrom va Gulandom» Alisher Navoiy dostonlari, «Yusuf va Zulayho» shu sujetdagi forsiy va turkiy asarlar, «Rustami Doston», «Shohnoma», «Varqa bilan Gulshoh», «Vomiq bilan Uzro» forschadan ozarbayjonchaga qilingan tarjimalar asosida yaratilgan. Kitobiy dostonlar orasida yana shunday namunalar borki, ularning yaratilishida asos bo'lgan manbani topish qiyin. Ammo asarning temasi, uslubi, tasvir mohiyati kitobiy manbaga asoslanganligi va yozma adabiyotga yaqin turganligini aniq ko'rsatadi.

9-mavzu. Xalq ertaklarining janr xususiyatlari va mazmuniga ko'ra turlari.

Hayot haqiqati bilan bog'liq bo'lishi, hayotiy va hayotiy uydirmalar asosiga ko'rilganligi, didaktik g'oya tashuvchi og'zaki hikoyalar ertak deyiladi.

Ertak-o'zbek og'zaki prozasining etakchi janrlaridan biri bo'lib, ularda xalqning ulug'vor g'oyalari, dunyoqarashi, ruhiy kechinmalari, sotsial-ahloqiy ideallari o'ziga xos yo'sinda badiiy aks etadi. Binobarin, ertaklar hech vaqt bekorchi, ertak narsalar emas, ular hamma vaqt muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadilar.

Ertak epik folklorning mustaqil janri. ertak janridagi asarlarning o'ziga xosligi, boshqa janrlardan farqlanishi.

Ertaklar tasnifi. Tasnif principlari. ertaklarning boshqa janrlar bilan munosabati. Bu janrdagi asarlarda mazmun va shakl masalasi.

Ertaklarda obrazlar talqini. G'oyaviy mazmun va konflikt, hayotiy voqeilik va xayoliy uydirma. Syujet va kompoziciya.

10-mavzu. Xalq qo'shiqlari – lirik janr sifatida. Xalq qo'shiqlarining tasnifi va badiiy xususiyatlari.

Qo'shiqlar-o'zbek folklorining qadimiy va keng tarqalgan janrlardan biri sifatida. O'zbek xalq qo'shiqlari janr mansubiyati, yaratilish davri, ijro o'rni va turi kabilar jihatidan xilma-xillik kasb etishi. Bu jihatdan xalq qo'shiqlari marosim va marosimga aloqasiz qo'shiqlarga bo'linishi. To'y va boshqa marosimlarda ijro etiladigan yoki motam yig'ilari marosim qo'shiqlarini tashkil etilishi.

Qo'shiqlarning janr xususiyatlari. Xalq qo'shiqlarining mavzusiga ko'ra tasnifi. Marosim qo'shiqlari va ularning turlari. Marosim qo'shilarining hayotiy asoslari. Marsiyalar mehnatkash ommaning dunyoqarashi, psixologiyasi va estetik tafakkurlarining aks etishi. Tarixiy qo'shiqlar. Tarixiy qo'shiqlarning badiiy xususiyatlari. Qo'shiqlarning ma'rifiy va tarbiyaviy ahamiyati.

O'zbek folklorida qo'shiqning tutgan o'rni. Qo'shiq atamasining lisoniy tahlili. Qadimiy qo'shiqlarning Mahmud Koshg'ariyning «Devonu

lug'atit turk» asarida keltirilishi. Qo'shiqlarning vazn va to'roqlari. Qo'shiq janridagi og'zaki asarlarning janr tabiati. Qo'shiqlar tasnifi:

- mehnat qo'shiqlari: Ovchilik, chorvachilik, dehqonchilik, hunarmandchilik, tijorat qo'shiqlari.
- lirik qo'shiqlar ularning janrlari va o'ziga xosligi. Mavzu ko'lami. Obrazlar silsilasi. G'oyaviy- badiiy xususiyatlari.
- tarixiy qo'shiqlar, ularning o'ziga xos xususiyatlari. Mavzu ko'lami, g'oyaviy-badiiy jihatlari. Xalq qo'shiqlari ijrochilari.
- termalar o'zbek folklorining mustaqil janri. Uning yaratilishida baxshilarning roli. Terma janridagi asarlarning o'ziga xosligi, boshqa janrlardan farqli tomonlari. Termalar tasnifi.

11-mavzu. Mavsumiy, oilaviy marosim folklori va ularning badiiyati. O'zbek folklorida ramz va timsollar

Marosim folklori haqida ma'lumot. Mavsumiy marosim aytimlari. Bahorgi mavsum bilan bog'liq aytimlar. Shox moylar marosimi. Navro'z bayrami bilan bog'liq marosimlar.Yomg'ir, shamol va boshqa tabiat hodisalari bilan bog'liq marosimlar. Yozgi va kuzgi marosimlar. «Choy momo», «Yo Haydar» qo'shiqlari. Haydar, Ajdar, Yallimomo kul'tlari bilan bog'liq tasavvurlar. Qishki marosimlar.Yas-yusun marosimi.

Oilaviy maishiy marosimlar. To'y marosimlari: beshik, xatna, nikoh to'ylari bilan bog'liq marosimlar va ularda aytiladigan aytimlar.

Motam marosimlari. Yig'i-yo'qlovlar, ularning mavzu ko'lami. Marosim aytimlarining janr tabiati.

So'z magiyasiga asoslangan marosimlar. Xalq afsunlari, ularning janriy belgilari.

12-mavzu. Xalq dramasi: qo'g'irchoq teatri, og'zaki dramma va ijro san'ati.

So'z san'atining dastlabki namunalari insoniyat nutqi paydo bo'lishi bilan yuzaga kela boshladi. Masxaraboz, qiziqchi va qo'g'irchoqbozlar tomonidan yaratilgan, ular ijrosida, an'anaviy xalq teatri, spektakl sifatida avloddan avlodga og'zaki ravishda o'tib kelgan dramatik asarlar og'zaki badiiy ijodning maxsus turini tashkil etadi. Og'zaki dramalar an'anaviy xalq teatrining asosiy repertuari hisoblanadi.

Xalq orasida og'zaki tarzda yaratilgan va xalq san'atkorlari tomonidan sahnada namoyish etiladigan folklor asarlari **og'zaki drama** deb ataladi. Og'zaki drama – xalq ijodining mustaqil janri sifatida juda qadim zamonlarda shakllangan. U turli xil o'yin-kulgilardan, dramatik holatlardan, har xil qiyofaga kirgan tomoshachilarning monolog va dialoglaridan, sahna harakatlari, ovoz ohanglaridan tashkil topadi.

13-mavzu. Satirik va yumoristik janrlar: askiya, lof, latifa.

Askiya o'zbek folklorining mustaqil janri sifatida. Askiya janridagi

asarlarning ijro o'rni, ijrochilari. Askiyaning badiiy va g'oyaviy xususiyatlari. Askiya janridagi asarlarning kompoziciyasi. Askiyada satira va yumorning o'rni. Askiya turlari.Payrov, safsata, o'xshatdim,va diolog shaklidagi askiyalar.

Latifalarning janr tabiati. Latifa janrining tarixiy asoslari. Latifalarning syujet tuzilishi va kompozicion qurilishi. O'zbek xalq latifalarining obrazlar tizimi. Latifa janridagi asarlarda satira va yumorning tutgan o'rni.

Askiya janrining o'ziga xos belgilari. Askiya payrovlari haqida. Mashhir askiyachilar haqida ma'lumot. So'z o'yinlari. Ularda omonimlarni qo'lashdagi san'ankorlik. So'z o'yinlari va tuyuqlar.

Latifa so'zi arabcha lutf, latif so'zlaridan olingan bo'lib, nozik nafis ma'nolarini anglatishi. Latifalar xalq orasida keng tarqalgan bo'lib, xalq og'zaki prozasining voqeaband, hajman kichik, yumoristik xarakterdagi hajviy janrlaridan hisoblanganligi. Latifalar juda qadimiy bo'lishiga qaramay, ularning Nasriddin nomi bilan bog'lanishi nisbatan keyingi davrlarga xosligi. Fikrning ixcham, lo'nda ifodalanishi va favqulodda chuqur mazmun bilan tugallanishi, ba'zan beg'araz, ba'zida achchiq kulgi uyg'otish latifalarning muhim belgisi hisoblanganligi.

Lof mustaqil folklor janri sifatida. Lofning o'zbek xalq nasrida tutgan o'rni. Askiya va latifalarga munosabati. Lof ijrochilari, lofbozlar haqida.

Lofda satira va yumorning o'rni. Bu janrdagi asarlarda asosiy badiiy tasvir vositalari. Lof badiiyati, g'oya va mavzu ko'lami. Lof kompoziciyasi, syujeti. Uning folklorning boshqa janrlaridan ajralib turishi.

Og'zaki dramalar-xalq ijodining mustaqil turi. Og'zaki drama va folklor teatrlari. Og'zaki dramaning g'oyaviy -tematik yo'nalishi. Masxaraboz va qiziqchilar teatri. Og'zaki drama ijrochilari haqida.

14-mavzu. Bolalar folklori va uning badiiy xususiyatlari

Bolalar fol'klori xalq og'zaki ijodining muhim tarkibiy qismi sifatida. Bolalar fol'klorining o'ziga xos jihatlari haqida ma'lumot (hajm, syujet chizig'i, janrlar). Tez aytishning janr xususiyatlari. Bolalar ertaklari. Bolalar qo'shiqlari.

15-mavzu. Mustaqillik davri o'zbek fol'klorshunosligi.

O'zbek xalqining asrlar davomida yaratgan og'zaki so'z san'ati namunalari milliy madaniyatimizning tarkibiy qismi hisoblanadi. Har bir xalqning asrlar idealini aks ettiruvchi og'zaki ijodi bo'lganidek, o'zbek xalqi ham qadimiy tarixga boy va rang-barang og'zaki adabiyot durdonalariga ega bo'lgan xalqlardan biridir.

Xalq ommasi tomonidan yaratilib xalqning talantli vakillari ijrosida sayqal topib, avloddan avlodga o'tib kelayotgan afsona va rivoyatlar, maqol va matallar, olqish va duolar, topishmoq va qo'shiqlar, latifa va naqllar, ertak va dostonlar o'zbek xalq og'zaki ijodini tashkil qiladi.

Yuksak nafosat va mangu hikmat xazinasi bo'lgan ana shu asarlarda

ajdodlarimizning urf-odatlari va an'analari, odob-axloqi va madaniyati, tarixi va milliy qadriyatlari, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, badiiy-falsafiy va diniy qarashlari o'zining yorqin ifodasini topgan. Xalq yaratgan asarlar, o'z navbatida, qadimgi o'zbek xalqining e'tiqodi va dunyoqarashini o'rganishda, folklor namunalarida ilgari surilgan ilg'or g'oyalar, umuminsoniy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlarni bilib olishda asl manba bo'lib ham xizmat qiladi.

Folklor haqidagi fan – **folklorshunoslik (folkloristika)** bo'lib, og'zaki so'z san'atining o'ziga xos xususiyatlari, folklorning paydo bo'lishi, shakllanishi va taraqqiyot bosqichlari, ijtimoiy tabiati va g'oyaviy mohiyati, shuningdek, janrlar spetsifikasi kabi masalalaridan bahs yuritadi. Folklorshunoslik sotsiologiya, etnografiya, til, tarix, arxeologiya, san'atshunoslik, musiqashunoslik va boshqa fanlar bilan aloqadorlikda ish ko'radi. Chunki folklor sinkretik so'z san'ati sifatida san'atning barcha turlari bilan chambarchas bog'langan.

III. Amaliy (yoki laboratoriya) mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Xalq og'zaki ijodining o'ziga xos xususiyatlari..
2. Afsona, asotir, rivoyat janrlarining o'ziga xos xususiyatlari.
3. Xalq dostonlari va dostonchilik maktablari . Qahramonlik dostoni - "Alpomish" dostonining variant va versiyalari.
4. Go'ro'g'li turkumidagi dostonlar. Go'ro'g'lining tugilishi
5. «Go'ro'g'li» turkumidagi dostonlaridagi obrazlar tizimining voqealar rivojidagi o'rni. "Ravshan" dostonining g'oyaviy va badiiy tahlili.
6. "Kuntug'mish" dostonida sevgi va vafo ifodasi.
7. Xalq maqollari va topishmoqlar talqini.
8. Satirik drama: askiya, lof va latifa janrlari

Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. "Alpomish" dostonining g'oyaviy va badiiy tahlili.
2. "Malika ayyor" dostonining g'oyaviy va badiiy tahlili.
3. Ertak va uning janr xususiyatlari. «Uch og'ayni botirlar» ertagining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari
4. Xalq qo'shiqlarining tasnifi va badiiy xususiyatlari. Qo'shiqlarda timsollar
5. Xalq dramasi-qo'g'irchoq teatrining turlari: "Chodir jamol", "Chodir xayol", "Fonus xayol"
6. Bolalar folklori janrlari va o'yinlari. O'zbek marosim falklori
7. Mustaqillik davri o'zbek fol'klorshunosligi

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

	1. Maxmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'otit turk" asaridagi folklore materiallari. 2. Joynomlari bilan bog'liq rivoyatlarni yozib kelish 3. Xalq baxshilari va ularning dostonchilikdagi o'rni mavzusida referat yozib kelish. 4. "Dada qurqut kitobi" va "Alpomish" dostonining qiyosiy tahlili. 5. "Oysuluv" dostonida obrazlar tizimi 6. O'zbek xalq ertaklarining o'rganilishi va ularda qo'shaloqlashtirish usuli. 7. Maqol va hikmatli, topishmoqlar bilan tanishish va uning uslubi, ko'chma ma'nosini izohlash. 8. Xalq qo'shiqlarida timsollar. 9. Xalq orasida eshitgan latifa, lof, askiyalarni yozib kelish. 10. Navoiy ijodida folklor an'analari.
3.	**V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: ➢ O'zbek folklori manbalar va ularning mazmuni haqida bilimga ega bo'ladilar. ➢ Og'zaki ijod namunalari va ularning janri, badiiyati haqida aniq tasavvurga ega bo'ladilar. ➢ Afsona, doston va o'zbek marosimlari haqida ma'lumotlarga ega bo'ladilar. ➢ O'zbek xalq og'zaki ijodi va uning namunalari haqida bilimga ega bo'ladilar. ➢ *Ko'nikma va malakalar jihatidan:* ➢ Folklor namunalarini tahlil qilish konikmasi. ➢ Janr, badiiy tasviriy vositalar, shakl va mazmun munosabatini tahlil etish malakasi. ➢ O'zbek xalq og'zaki ijodini o'rganish va o'rgatish malakasi. ➢ Folklor namunalaridan variant va versiyalarni tahlil qilish malakasi.
4.	**VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:** • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • tarqatma materiallar; • ko'rgazmali qurollar; • Kompyuter; media • Internet yangiliklari; • muammoli ta'lim; • qiyosiy tahlil.
5.	**VII. Kreditni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa

	topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish
6.	**Asosiy adabiyotlar:** 1. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. -Ò.: "Musiqa" nashriyoti, 2010. 2. Madayev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. -Ò.: "Mumtoz so'z", 2010 3. Imomov K., Mirzaev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. –T.: «O‘qituvchi», 1990. 4. O‘zbek fol’klori ocherklari. –T.: «Fan», 1988. 5. Madayev O., Sobitova T. Xalq og‘zaki poetic ijodi. –T.: “Sharq” nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2003. **Qo‘shimcha adabiyotlar:** 1. Madaev O. «Alpomish» bilan suhbat. –T.: «Ma’naviyat», 1999. 2. E.Musurmonov. Bolalar fol’klori. –S.: SamDU, 2002, 112 b. 3. E.Musurmonov. O‘zbek xalq dostonlari. –S.: SamDU, 2005, 52 b. 4. N.Muxitdinova. O‘zbek folklori. –S.: SamDU, 2019. – 164 b. **Axborot manbalari (saytlar):** 1. www. literature.uz 2. www. genhis philol.ru. 3. http://en.wikipedia.org/wiki/Structuralism 4. http://www.brocku.ca/english/courses/4F70/struct.html
7.	Fan dasturi Samarqand davlat universiteti O‘quv-uslubiy кengashining 2021 -yil __-_____dagi __-son bayonnomasi bilan ma’qullangan.
8.	**Fan/modul uchun mas’ullar**: Mumtoz adabiyot tarixi kafedrasi dotsenti Musurmonov Erkin Rabbimovich Mumtoz adabiyot tarixi kafedrasi dotsenti Muxitdinova Nazmiya Muslixiddinovna
9.	**Taqrizchilar:** **Sh.Hasanov.** SamDU, “Istiqlol davri adabiyoti va adabiyot nazariyasi” kafedrasi professori, f.f.d.. (ichki) **G‘ Rahimqulov.** SamDU, “Tojik tili va adabiyoti” kafedrasi o‘qituvchisi, f.f.d.. (tashqi)

Samarqand davlat universiteti
Mumtoz adabiyot tarixi kafedrasining bakalavr (kunduzgi) talabalari uchun mo'ljallangan "O'zbek folklori" nomli fan dasturiga

T A Q R I Z

O'lkamiz mustaqillikka erishganidan keyin o'zbek folkloriga bo'lgan qiziqish kuchaydi va bu narsa folklorni o'rgatuvchi, xalk og'zaki badiiy ijodi b o'yicha dars beruvchi, folklor san`ati bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar oldiga ham dolzarb vazifalarni qo'ydi. Ayniqsa, an`anaviy folklorni tadqiq etish, uning qadimiy uzvlarini tiklash, nodir ijro yo'llari, folklor janrlari va ularning badiiyati haqida fan dasturlari va qo'llanmalar yaratish fol'klorshunoslikning kechiktirib bo'lmaydigan vazifalaridan biriga aylandi.

Ajdodlarimizning ko'p acrlik badiiy tafakkur durdonalarini bebaho milliy kadriyatlar tizimi sifatida saqlab qolish, targ'ib va tadqiq etish, uning eng nodir na-munalarini keng ommalashtirishda folklorshunoslik fanining xizmatlari benihoya kattadir. Asrlar davomida xalqimizni yuksak ma`naviy komillik ruhida tarbiyalashdek ezgu maksadga xizmat qilib kelgan ana shu badiiy qadriyatlarni to'plash, folklor asarlarini arxivlashtirish, uning eng yaxshi namunalarini nashr etish, ilmiy urganish va ommalashtirish fol'klorshunoslikning asosiy maksadini tashkil etadi.

Milliy mustakillik xalqimizning o'z bobolari zakovati tufayli yaratilgan ulkan madaniy merosga bo'lgan munosabatini tubdan yangilab, ajdodlarimiz tarixi, madaniyati, ma`naviy kadriyatlari tizimini keng ko'lamda targ'ib etishning misli kurilmagan imkoniyatlarini ochib berdi. Istiklol sharofati bilan dunyokarashimizda, ongimizda ro'y bergan yangilanish, ruhiy poklanish va ma`naviy tiklanish jarayoni folklor san`atining taraqqiyotida ham yaqqol aks etmoqda. Zero, folklor san`ati an`analari "mustaqil dunyoqarashga ega, ajdodlarimizning bebaho merosi va zamonaviy tafakkurga tayanib yashaydigan barkamol shaxc - komil insonni tarbiyalash", dek ulug'vor maqsadlarga xizmat qiladi.

"O'zbek folklori" nomli fan dasturi "O'zbek folklori" fanining ma'ruzalarning qisqacha mazmuni, amaliy mashg'ulot va seminar nazoratlarini o'tkazish uchun savollar hamda foydalanishga mo'ljallangan adabiyotlar berilgan. Ushbu fan dasturi belgilangan talablarga javob beradi.

Sh.Hasanov.

SamDU, "Istiqlol davri adabiyoti va adabiyot nazariyasi" kafedrasi professori, f.f.d.. (ichki)

Samarqand davlat universiteti
Mumtoz adabiyot tarixi kafedrasining bakalavr (kunduzgi) talabalari uchun mo'ljallangan "O'zbek folklori" nomli fan dasturiga

T A Q R I Z

O'lkamiz mustaqillikka erishganidan keyin o'zbek folkloriga bo'lgan qiziqish kuchaydi va bu narsa folklorni o'rgatuvchi, xalk og'zaki badiiy ijodi b o'yicha dars beruvchi, folklor san`ati bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar oldiga ham dolzarb vazifalarni qo'ydi. Ayniqsa, an`anaviy folklorni tadqiq etish, uning qadimiy uzvlarini tiklash, nodir ijro yo'llari, folklor janrlari va ularning badiiyati haqida fan dasturlari va qo'llanmalar yaratish fol'klorshunoslikning kechiktirib bo'lmaydigan vazifalaridan biriga aylandi.

Ajdodlarimizning ko'p acrlik badiiy tafakkur durdonalarini bebaho milliy kadriyatlar tizimi sifatida saqlab qolish, targ'ib va tadqiq etish, uning eng nodir namunalarini keng ommalashtirishda folklorshunoslik fanining xizmatlari benihoya kattadir. Asrlar davomida xalqimizni yuksak ma`naviy komillik ruhida tarbiyalashdek ezgu maksadga xizmat qilib kelgan ana shu badiiy qadriyatlarni to'plash, folklor asarlarini arxivlashtirish, uning eng yaxshi namunalarini nashr etish, ilmiy urganish va ommalashtirish fol'klorshunoslikning asosiy maksadini tashkil etadi.

Milliy mustakillik xalqimizning o'z bobolari zakovati tufayli yaratilgan ulkan madaniy merosga bo'lgan munosabatini tubdan yangilab, ajdodlarimiz tarixi, madaniyati, ma`naviy kadriyatlari tizimini keng ko'lamda targ'ib etishning misli kurilmagan imkoniyatlarini ochib berdi. Istiklol sharofati bilan dunyokarashimizda, ongimizda ro'y bergan yangilanish, ruhiy poklanish va ma`naviy tiklanish jarayoni folklor san`atining taraqqiyotida ham yaqqol aks etmoqda. Zero, folklor san`ati an`analari "mustaqil dunyoqarashga ega, ajdodlarimizning bebaho merosi va zamonaviy tafakkurga tayanib yashaydigan barkamol shaxc - komil insonni tarbiyalash", dek ulug'vor maqsadlarga xizmat qiladi.

"O'zbek folklori" nomli fan dasturi "O'zbek folklori" fanining ma'ruzalarning qisqacha mazmuni, amaliy mashg'ulot va seminar nazoratlarini o'tkazish uchun savollar hamda foydalanishga mo'ljallangan adabiyotlar berilgan. Ushbu fan dasturi belgilangan talablarga javob beradi.

G' Rahimqulov. **SamDU, "Tojik tili va adabiyoti" kafedrasi o'qituvchisi, f.f.n.. (tashqi)**